

**TASAVVUF TA'LIMOTIDA VALIYLIK TUSHUNCHASINING
DINIY-FALSAFIY TALQINI**

A'zamjonov Islomjon

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent **Jo'rayev Sherali**

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada tasavvuf ta'limotida markaziy o'rin tutuvchi valiylik tushunchasi diniy va falsafiy nuqtayi nazardan IMRAD usuli asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Qur'oni karim oyatlari, sahih hadislar hamda Imom Qushayriy, Abu Homid al-G'azzoliy, Muhyiddin Ibn Arabiy, Najmiddin Kubro kabi mumtoz tasavvuf mutafakkirlarining asarlariga tayangan holda olib borildi. Maqolada valiylikning ontologik, gnoseologik va axloqiy asoslari yoritilib, uning inson kamoloti va ilohiy yaqinlik konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, valiylik, avliyo, ma'rifat, metafizika, axloqiy kamolot, gnoseologiya, ontologiya, fano, haqiqat.

Kirish

Islom tafakkurida tasavvuf insonning botiniy olamini poklash, nafsni tarbiya qilish va Alloh taologa ma'naviy yaqinlikka erishish yo'li sifatida shakllangan. Ushbu ta'limot doirasida "valiylik" tushunchasi markaziy o'rin egallaydi va u faqat diniy-amaliy holat emas, balki chuqur falsafiy mazmunga ega konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Qur'oni karimda Alloh taolo shunday

marhamat qiladi: “Ogoh bo‘lingizki, albatta Allohning do‘stlariga qo‘rquv yo‘qdir va ular g‘amgin ham bo‘lmaslar” [Yunus surasi, 62-oyat]. Ushbu oyat valiylikning ilohiy maqom ekanini va uning manbai bevosita Allohning irodasiga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Tasavvufiy tafakkurda valiylik nubuvvatdan keyingi eng yuksak ruhiy martaba sifatida talqin qilinadi. Imom Qushayriy valiylikni shunday izohlaydi: “Valiy — bu Alloh bandalaridan bo‘lib, Alloh uni O‘z muhabbatiga tanlab olgan va uni O‘z himoyasiga olgan zotdir¹”. Ushbu ta’rif valiylikning diniy mohiyati bilan birga, ilohiy tanlov va insoniy sa’y-harakat o‘rtasidagi murakkab falsafiy munosabatni ham ochib beradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, valiylik inson va Mutlaq Haqiqat (Alloh) o‘rtasidagi ontologik yaqinlik holatini ifodalaydi. Bu holat tasavvufda “ma’rifat”, “haqiqat” va “fano” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday ekan, valiylikni faqatgina diniy termin sifatida emas, balki islomiy falsafaning muhim kategoriyalaridan biri sifatida tahlil qilish zarur.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – tasavvuf ta’limotida valiylik tushunchasining diniy-falsafiy talqinini Qur’on, hadis va mumtoz tasavvufiy manbalar asosida keng qamrovli ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot tasavvuf ta’limotida valiylik tushunchasining diniy-falsafiy mazmunini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi.

¹ Abdulkarim ibn Hawozin al-Qushayriy, Ar-Risola al-Qushayriyya, Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002, 211-bet.

Birinchidan, tarixiy-metodik yondashuv orqali valiylik tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, turli davrlar tasavvuf tafakkurida uning qanday talqin qilingani tahlil qilindi.

Ikkinchidan, matnshunoslik va interpretativ tahlil usuli yordamida Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy manbalardagi valiylik bilan bog'liq asosiy tushunchalar chuqur o'rganildi. Shu bilan birga, mutafakkirlarning valiylik haqidagi qarashlari ularning asarlarida bayon etilgan kontekst va falsafiy mazmuniga asoslanib izohlandi.

Uchinchidan, falsafiy-komparativ metod qo'llanib, turli mutafakkirlarning ontologik, gnoseologik va axloqiy jihatlardan valiylik tushunchasiga bo'lgan yondashuvlari solishtirildi. Bu yondashuv valiylikni nafaqat diniy-amaliy, balki chuqur falsafiy konsepsiya sifatida ko'rishga imkon berdi.

Shuningdek, tahliliy metod yordamida tadqiqot natijalari tizimli tarzda umumlashtirilib, valiylik tushunchasining diniy, ruhiy va axloqiy asoslari, uning ma'rifat bilan bog'liqligi va inson kamolotidagi o'rni aniqlangan.

Ushbu metodologiya valiylik tushunchasini har tomonlama va integrativ tarzda tahlil qilishga imkon yaratdi hamda maqolaning natija va muhokama bo'limlarida fikrlarni ilmiy asosda bayon qilish imkonini berdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tasavvuf ta'limotida valiylik tushunchasi murakkab diniy-falsafiy tizim sifatida shakllangan bo'lib, u bir nechta asosiy nazariy mezonlar orqali izohlanadi.

“Ogoh bo'lingizki, Allohning do'stlariga qo'rquv yo'qdir va ular g'amgin bo'lmaslar. Ular imon keltirgan va taqvo qilgan zotlardir” [Yunus surasi, 62–63-oyatlar]. Tafsirida At-Tabariy yozadi: “Bu oyatda zikr qilingan Allohning

do‘stlari – Unga itoatda sobit bo‘lgan, gunohdan saqlangan va qalblari imon bilan to‘lgan bandalardir”².

“Kim Mening valiyimga dushmanlik qilsa, Men unga qarshi urush e‘lon qilaman”³. Mazkur hadisi qudsiy tasavvuf ta‘limotida valiylik tushunchasining ilohiy maqomini aniqlab beruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu hadisning mazmuni valiylikning nafaqat diniy-amaliy, balki chuqur falsafiy va metafizik mohiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Avvalo, hadisda valiylikning manbai bevosita Allohning O‘zi ekani ochiq bayon qilinadi. Valiy o‘z maqomini shaxsiy da‘vo yoki tashqi belgilar orqali emas, balki Allohning tanlovi va inoyati orqali qo‘lga kiritadi. Shu bois, valiyga nisbatan dushmanlik qilish, aslida Allohning irodasi va ilohiy tartibiga qarshi chiqish sifatida talqin etiladi.

“Valiy – bu Alloh tomonidan himoyalangan, gunohlarga tashlab qo‘yilmagan va Uning zikrida doimiy bo‘lgan bandadir”⁴. Valiyning gunohlardan saqlanishi va doimiy zikrda bo‘lishi uning axloqiy yetukligi va ruhiy pokligini anglatadi. Qushayriy bu orqali valiylikning tashqi belgilar (karomat yoki mashhurlik) bilan emas, balki ichki komillik va Alloh bilan uzviy aloqada bo‘lish bilan aniqlanishini ko‘rsatadi. Ushbu ta‘rif valiylikni Alloh huzuridagi oliy maqom sifatida belgilaydi. Valiyning himoyalanganligi, gunohlardan saqlanishi va zikr bilan doimiy shug‘ullanishi jamiyatda axloqiy va ruhiy ibrat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan valiylar insoniyat uchun ma‘naviy yetakchi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi shaxslar hisoblanadi.

“Valiylik karomat bilan emas, balki nafsni sindirish va axloqni go‘zal qilish bilan bilinadi”⁵. Bu valiylikning asosiy mezoni tashqi mo‘jizalar

² Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, Jomi‘al-bayon ‘an ta‘vil ay al-Qur‘on, Qohira, Dar al-Hijr, 2001, 11-jild, 144-bet.

³ Imom Buxoriy, Sahih al-Buxoriy, Bayrut, Dar Ibn Kasir, 2002, kitob ar-rifoq, 6502-hadis, 8-jild, 131-bet.

⁴ Abdulkarim ibn Hawozin al-Qushayriy, Ar-Risola al-Qushayriyya, Qohira, Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002, 214-bet

⁵ Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy, Ihyo ulum ad-din, Bayrut, Dar al-Ma‘rifa, 2005, 4-jild, 353-bet.

(karomat) emas, balki ruhiy va axloqiy kamolot ekanini ko'rsatadi. G'azzoliy ta'kidlaganidek, haqiqiy vali qalbini poklab, nafsini tarbiyalash orqali Allohga yaqinlikka erishadi va jamiyatda axloqiy namuna bo'ladi. Shu bilan valiylik ichki kamolot va ma'naviy yetuklik bilan aniqlanadi, tashqi ko'rinishlar esa ikkinchi darajali belgilar sifatida qaraladi.

“Valiylik – bu ilohiy haqiqatning inson qalbida zohir bo'lishidir; nubuvvat xitobi uzilgan bo'lsa-da, valiylik nuri davom etadi”⁶. Ibn Arabiyga ko'ra, valiy inson qalbida Allohning haqiqatini idrok etuvchi nur sifatida namoyon bo'ladi. Valiyning nuri nubuvvat tugaganidan keyin ham davom etadi, ya'ni valiylik nubuvvatning tarixiy xitobidan mustaqil, lekin ilohiy aloqaga asoslangan ruhiy maqom sifatida mavjud. Shu bilan valiylik Alloh bilan uzluksiz yaqinlik, qalbdagi ma'rifat va ruhiy kamolotni ifodalaydi. Bu iqtibos tasavvufda valiylik tushunchasining metafizik, gnoseologik va ontologik jihatlarini yoritadi.

“Valiylik — qalb ko'zining ochilishi va ilohiy nurning unda qaror topishidir”⁷. Najmiddin Kubro ta'kidlaganidek, valiylik qalb ko'zi ochilganda yuzaga keladi va inson qalbida ilohiy nurning qaror topishi bilan belgilanadi. Bu tushuncha valiylikni nafaqat tashqi amallar yoki karomatlar bilan, balki ichki ruhiy tajriba, ma'rifat va Allohni bilish bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shu bilan valiylik — insonning ruhiy kamolotining eng oliy bosqichi va qalb orqali Alloh bilan uzluksiz aloqaning ifodasi hisoblanadi.

Muhokama

Ontologik nuqtayi nazardan, valiylik inson va Mutlaq Haqiqat — Alloh o'rtasidagi mavjudlik yaqinligini ifodalaydi. Bu talqin valiylikni faqat tashqi amallar orqali emas, balki qalb va ruh orqali Alloh bilan bog'lanish, ilohiy sifatlarning inson qalbida tajalliy etishi sifatida tushuntiradi. Shu jihatdan

⁶ Muhyiddin Ibn Arabiy, *Al-Futuhot al-Makkiyya*, Bayrut, Dar Sadir, 1999, 2-jild, 6-bob, 49-bet.

⁷ Najmiddin Kubro, *Usul al-ashara*, Toshkent, Movarounnahr, 2007, 61-bet.

valiylik, tasavvuf falsafasida, insonning oliy ruhiy maqomi va Allohga yaqinlikning ontologik mezoni sifatida qaraladi.

“Valiylik — bu Allohning bandada O‘z sifatleri bilan tajalliy etishidir”⁸. Ibn Arabiyga ko‘ra, valiy inson qalbida Allohning sifatleri — rahm, ilm, qudrat va boshqa ilohiy hususiyatlar — orqali namoyon bo‘ladi. Bu, valiylikni shunchaki insoniy fazilat yoki tashqi karomatlar bilan o‘lchash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, valiylik Alloh bilan mavjudlik uyg‘unligi va inson ruhining oliy maqomi sifatida qaraladi. Valiyning ruhiy va ontologik yuksakligi, uning qalbida Allohning sifatleri bilan uzviy bog‘langanligi bilan belgilanadi.

“Valiylik fano orqali boshlanib, baqo bilan kamol topadi”⁹. Valiylik inson ruhining fano (nafsni yo‘q qilish va dunyoviy bog‘liqliklardan ozod bo‘lish) bosqichi orqali boshlanadi va baqo (Alloh bilan uyg‘un yashash, ruhiy doimiylik) bosqichi bilan yakun topadi. Shu nuqtai nazardan valiylik — insonning ruhiy kamolotini bosqichma-bosqich ifodalaydigan jarayon bo‘lib, ontologik yaqinlik va ilohiy nur bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanadi.

Gnoseologik nuqtayi nazardan, valiylik Allohni bilishning oliy darajasi ma‘rifat bilan uzviy bog‘liqdir. Bu talqin valiylikni faqat tashqi amallar orqali emas, balki qalb nurida haqiqatni idrok etish, ruhiy tafakkur va botiniy bilish orqali aniqlaydi. Shu jihatdan valiylik – insonning epistemologik kamoloti, Allohni chuqur idrok etishi va qalb orqali ma‘rifat nurida yashashi bilan belgilanadi. “Ma‘rifat – qalbgga tushadigan nur bo‘lib, u bilan haqiqat ayon bo‘ladi”¹⁰. G‘azzoliyga ko‘ra, ma‘rifat qalbgga tushadigan nurdir, u orqali inson Allohning haqiqatini idrok etadi va qalbdagi haqiqat ayon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan valiylik — nafaqat tashqi amallar yoki karomat bilan, balki qalb

⁸ Muhyiddin Ibn Arabiy, *Al-Futuhot al-Makkiyya*, Bayrut, Dar Sadir, 1999, 2-jild, 178-bet.

⁹ Najmiddin Kubro, *Usul al-ashara*, Toshkent, Movarounnahr, 2007, 73-bet.

¹⁰ Abu Homid al-G‘azzoliy, *Ihyo ulum ad-din*, Bayrut, Dar al-Ma‘rifa, 2005, 3-jild, 18-bet.

orqali Allohni bilish va ruhiy haqiqatni idrok etish bilan belgilanadi. Bu iqtibos valiylikni ma’rifat natijasi sifatida yuzaga keladigan ruhiy va epistemologik jarayon sifatida tushuntiradi.

“Valiylik ilm bilan emas, balki ilmning samarasiga aylangan hol bilan sobit bo’ladi”¹¹. Qushayriyga ko’ra, haqiqiy valiy — o’rgangan ilmni qalbida amal qiladigan, botiniy tushuncha va ma’rifatga aylantirgan shaxsdir. Shu nuqtai nazardan, valiylik gnoseologik jarayon sifatida bilish, idrok etish va ruhiy amaliyotning uyg’unlashuvi orqali yuzaga keladi, ya’ni u tashqi bilim yoki faktlarga emas, balki qalbdagi ruhiy tajriba va ma’rifat natijasiga asoslanadi.

Xulosa

Valiylik tushunchasi tasavvuf ta’limotida insonning ruhiy, axloqiy va epistemologik kamolotini, Allohga yaqinlikni, ma’rifatni va falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan oliy maqomni ifodalovchi markaziy konsepsiya sifatida shakllangan. Valiylik, bir tomondan, Qur’on va hadislar asosida shakllangan, Alloh huzuridagi maqomi bilan belgilanadigan diniy tushuncha bo’lsa, boshqa tomondan, tasavvufiy manbalarda uning ruhiy kamolot, ma’rifat, axloqiy komillik va ilohiy yaqinlik bilan bog’liq falsafiy konsepsiya ekanligi ko’rsatildi. Tahlil shuni ko’rsatdiki, valiylik konsepsiyasi tasavvufda nafaqat diniy amaliyot, balki falsafiy tafakkur, inson kamoloti va ma’naviy yetuklikni ifodalovchi tizim sifatida shakllangan. Valiylik tushunchasi insonning axloqiy, ruhiy va epistemologik jihatdan rivojlanishi, hamda nubuvvatdan keyingi oliy maqom sifatida davom etishi bilan muhimdir. Shu sababli, valiylik konsepsiyasi nafaqat islomiy tasavvufiy nazariyada, balki falsafiy va gnoseologik tadqiqotlarda ham alohida o’rganishga loyiq mavzu ekanligi tasdiqlanadi.

¹¹ Abdulkarim ibn Hawozin al-Qushayriy, Ar-Risola al-Qushayriyya, Qohira, Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002, 219-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, Jomi al-bayon an ta'vil ay al-Qur'on, Qohira, Dar al-Hijr, 2001, 11-jild, 144-bet.
2. Imom Buxoriy, Sahih al-Buxoriy, Bayrut, Dar Ibn Kasir, 2002, kitob ar-rifoq, 6502-hadis, 8-jild, 131-bet.
3. Abdulkarim ibn Hawozin al-Qushayriy, Ar-Risola al-Qushayriyya, Qohira, Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002, 211–231-bet.
4. Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy, Ihyo ulum ad-din, Bayrut, Dar al-Ma'rifa, 2005, 3–4-jild, 18, 353-bet.
5. Abu Homid al-G'azzoliy, Mizan al-'amal, Bayrut, Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2004, 92-bet.
6. Muhyiddin Ibn Arabiy, Al-Futuhot al-Makkiyya, Bayrut, Dar Sadir, 1999, 2-jild, 6-bob, 49, 178-bet.
7. Muhyiddin Ibn Arabiy, Fusus al-hikam, Bayrut, Dar al-Kitab al-Arabi, 2001, 73-bet.
8. Najmiddin Kubro, Usul al-ashara, Toshkent, Movarounnahr, 2007, 61–73-bet.